

**SHAHAR JAMOAT TRANSPORTI HARAKAT XAVFSIZLIGINI TA'SIR
ETUVCHI OMILLAR**

Shermatov Shamshir Xusanovic

(*Toshkent davlat transport universiteti katta o'qituvchi*)

Tursunov Nodir Hamrayevic

(*Toshkent davlat transport universiteti assistent*)

Utkirov Shokirxuja Shavkat o'g'li

(*Toshkent davlat transrort universiteti assistent*)

Annotatsiya: *Ushbu maqolada shahar jamoat transpoti harakati xavfsizligiga ta'sir etuvchi asosiy parametrlar o'rganilib, ularni oldini olish bo'yicha takliflar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *shahar jamoat transporti, yo'lovchi, yo'l transport hodisasi, xavfsizlik koeffitsiyenti.*

Annotation: *This article explores the main parameters affecting the safety of urban public transport movement and presents proposals for their prevention.*

Keywords: *urban public transport, passenger, traffic accident, safety coefficient.*


So'nggi yillarda Toshkent shahrida yo'lovchilarga yo'naliishlarda avtobuslarda xizmat ko'rsatish sifat darajasi yaxshilandi. Jumladan, barcha avtobus saroylari yo'naliishlari zamonaviy turdag'i MAN, Isuzu, Mersedes Benz avtobuslari bilan, ular esa, "GPS" bilan ta'minlandi. Barcha avtobuslar harakatini "on-layn" kuzatish imkoniyati yaratildi. Yo'lovchilar uchun masofadan turib avtobuslar harakati to'g'ridagi axborotni mobil ilova orqali aniqlash imkoniyati yaratildi.

Yo'naliishlarda avtobuslar harakati xavfsizligini oshirishning turli usullari mavjud. Ularni qo'llashda esa, qo'llanilayotgan shaharning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish maqsadga muvofiq bo'ladi. Quyida yo'naliishli transportlar harakatini tashkil etish, ularda yo'l harakatini tashkil etish masalalarini ko'rib chiqamiz.

Transport oqimi harakati jadalligining o'sib borishi Toshkent shahri magistral ko'chalarining yuklanganlik darajasini ortib ketishiga va ularda tirbandliklarni yuzaga kelishiga olib keldi. Tahlilar shuni ko'rsatadiki, shaharning asosiy magistral ko'chalarining chetki harakatlanish bo'lagi (ko'p hollarda ikkinchisi ham) 4-6 soat davomida to'xtab turgan avtomobillar bilan band bo'lar ekan. Natijada, transport oqimidagi ushlanib qolishlar miqdori ortib ketayapti, transport oqimining o'rtacha tezligi esa, (birinchi galda belgilangan yo'naliishda qatnovchi yo'lovchi transportining) kamayib ketayapti. Bu muammolarni yechish uchun bugungi kunda shahar magistral ko'chalaridagi eng yirik va murakkab chorrahalarda harakatni ajratish maqsadida yo'l o'tkazgichlar qurib ishga tushirildi, kichik halqa yo'lida harakatlanish tashkil etildi. "Toshshahartransxizmat" AJga qarashli avtokorxonalaragi barcha jismonan va ma'nан eskirgan avtobuslar MAN, ISUZU, Mersedes Benz rusumidagi avtobuslar bilan

almashtirildi. Amalga oshirilayotgan tadbirlar jamoat transportining harakat tezligini bir muncha oshishiga olib keldi.

Toshkent shahridagi avtobus yo'naliishlari ishtirokida so'nggi 5 yilda sodir etilgan YTHlari ma'lumotlari tahlil qilinganda eng ko'p YTHlari mart va dekabr oylarida, umumiy YTHdan – 12,2 %ni, eng past ko'rsatkich iyun oyida, umumiy YTHdan – 3,1 %ni tashkil etishi aniqlandi (-rasm). Buning asosiy sababi, qish faslida yo'l sharoitlari yomonlashadi, aholi o'z shaxsiy avtomobillaridan ko'ra, jamoat transportidan ko'proq foydalanadi, bu esa, jamoat transporti ishtirokida YTHlari sonining ortishiga olib keladi. Tahlillar natijasiga ko'ra, qish faslida YTHlari sodir etilishi umumiy hajmdan – 32 %ni tashkil etmoqda. Yoz faslida yo'l sharoiti yaxshilanadi, aholining ko'pchiligi havo isiganligi sababli, shahardan tashqariga dam olish uchun chiqib ketishadi, o'z navbatida jamoat transportidan foydalanish darajasi, yo'llarda harakat jadalligi ham bir muncha kamayadi. Natijada, jamoat transporti ishtirokida YTHlari sodir etilishi ham kamayadi. Tahlil natijalari, yoz faslida YTHlari sodir etilishi eng past ko'rsatkichga erishganligini, umumiy YTHdan – 17,6 %ni tashkil etmoqda.




1-rasm. Toshkent shahrida so'nggi 5 yilda yo'naliishli avtobuslar ishtirokida sodir etilgan YTHlarining yilning oylari bo'yicha tahlili

Olib borilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra yo'naliishlarda avtobuslar harakati xavfsizligini baholash uchun yo'naliishning har bir elementini alohida tadqiq etish va ularning yig'indisi avtobus yo'naliishi xavfsizligini baholashda kutilgan natijani olishga imkon beradi. Yo'naliishning har bir elementlarini rejim shakllantiruvchi uchastkalarga bo'lish mumkin. Shunda avtobus yo'naliishi bo'yicha harakat xavfsizligini baholashda asosiy ta'sir etuvchi parametrlarni: gorizontal uchastkalar (qoplama turi bo'yicha: takomillashtirilgan (asfalt-beton, sement-beton), takomillashtirilmagan (tosh yoki tuproq yo'l), ravnligi, tishlashish koeffitsiyenti, ilashish koeffitsiyenti), oraliq bekatlar (yo'l qismlarida joylashishi o'rni bo'yicha: chorrahaga yetmasdan (oldin), chorrahadan

o'tgandan keyin, ikki chorrahar o'rtasida; bekatda harkatni tashkil etilganligi bo'yicha: cho'ntaksiz, yarim cho'ntak, cho'ntak shaklida), yo'llarning kesishmalar (bir sathli kesishmalar (avtomobil yo'llari – avtomobil yo'llari, avtomobil yo'llari – temir yo'llar), ko'p sathli kesishmalar (avtomobil yo'llari – avtomobil yo'llari, avtomobil yo'llari – temir yo'llar)), egri radiuslar, nishablik va ko'tarilishlar, qiyaliklar va h.k.lar aniqlash mumkin bo'ladi (2-rasm).

Шунда йўналишларда автобуслар ҳаракати хавфсизлиги қўйидаги ифода орқали аниқланади:

$$K = K_{ey} K_{kec} K_{o\bar{o}} K_{hk} K_{\vartheta} K_{ku\bar{u}}$$
(1)



2-rasm. Yo'naliishlarda avtobuslar harakati xavfsizligiga ta'sir etuvchi asosiy parametrlar bu yerda: K_{ey} – yo'naliishdagi gorizontal uchastkalar xavfsizlik koeffitsiyenti; K_{kec} – yo'naliishdagi kesishmalar xavfsizlik koeffitsiyenti; $K_{o\bar{o}}$ – yo'naliishdagi oraliq bekatlar xavfsizlik koeffitsiyenti; K_{hk} – yo'naliishdagi nishabliklar va ko'tarilishlar xavfsizlik koeffitsiyenti; K_{ϑ} – yo'naliishdagi egriliklar xavfsizlik koeffitsiyenti; $K_{ku\bar{u}}$ – yo'naliishdagi qiyaliklar xavfsizlik koeffitsiyenti.

(1) ifodadagi har bir xavfsizlik koeffitsiyentlari ($K_{ey}, K_{kec}, K_{o\bar{o}}, K_{hk}, K_{\vartheta}, K_{ku\bar{u}}$) ma'lum yo'l uchastkalari xavfsizlik koeffitsiyentlarining ko'paytmasidan iborat bo'ladi.

Masalan, yo'nalishdagi kesishmalar xavfsizlik koeffitsiyenti (K_{kec}) barcha kesishmalardagi xavfsizliklar koeffitsiyentlaridan tashkil topadi, ya'ni,

$$K_{kec} = K_1 K_2 \dots K_n \quad (2)$$

Har bir avtobus saroylari, yo'nalishlar, haydovchilar kesimida YTHlari sodir etilganligi (undagi o'lim va tan-jarohatlari) asosida reyting tizimini ishlab chiqish va amalga joriy etish lozim. Ya'ni, yo'l harakati xavfsizligi reytingi 3 ballik tizimda baholansa, so'nggi oy bo'yicha eng ko'p YTH sodir etilgan avtobus yo'nalishlarida qizil rangli belgi, undan kam YTH sodir etilgan avtobus yo'nalishlarida sariq rangli belgi va YTH sodir etilmagan avtobus yo'nalishlarida yashil rangli belgi osib qo'yiladi. Ranglar qizildan-yashilga o'zgarish rejimida va ular soni ball tizimiga bog'liq belgilanadi.

Doimiy ravishda avtobus saroylari, yo'nalishlar, haydovchilarning yo'l harakati xavfsizligi bo'yicha reytingini undan foydalanuvchi yo'lovchilar bilishi zarur. Shunda yo'lovchi avtobusdan foydalanish yoki foydalanmaslik to'g'risida qaror qabul qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Клинковштейн Г.И., Афанасьев М.Б. Организация дорожного движения: Учеб. Для вузов – 5-е изд., перераб. и доп. – М.: Транспорт, 2001 – 247 с.
2. Кульмухамедов Ж.Р. ва б. Автотранспорт воситаларида йўловчилик ташишни ташкил этиш, Т., “Илм Зиё”, 2016 – 160 б.
3. Ларин О.Н. Организация пассажирских перевозок. Уч.пособие. Челябинск, Изд-во ЮУрГУ, 2005. – 104 с.
4. Миротин Л.Б. Логистика: общественный пассажирский транспорт. Л.Б.Миротин. М.: Экзамен, 2003. - 224 с.
5. TS Qodirovich, US Shavkat o'g'li (2023). PIYODALAR KIYIMINING RANGI YO 'L-TRANSPORT HODISALARINING OLDINI OLISHDA QANDAY AHAMIYATGA EGA. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMY TADQIQOTLAR JURNALI 2 (19) 987-992.
6. TS Qodirovich, US Shavkat o'g'li (2023). O 'ZBEKISTON MILLIY AVTOSANOATDA ISHLAB CHIQARILGAN YENGIL AVTOTRANSPOST VOSITALARINING MARKIROVKA BELGILARINI ANIQLASH USULLARI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMY TADQIQOTLAR JURNALI 2 (19) 980-986.
7. SS Xusanovich, RZ Niyazmetovich, NJ Shavkat o'g'li (2023). CHORRAHADA TRANSPORT VOSITALARIDAN CHIQADIGAN CHIQINDI GAZLAR MIQDORINI KOMPYUTER MODELLASHTIRISH ORQALI ANIQLASH. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMY TADQIQOTLAR JURNALI 2 (19) 540-546.
8. OI Inoyatovich, AE Xalim o'g'li, TS Qodirovich (2023). AVTOMOBIL YO 'L EKSPERTIZASI BO 'YICHA YA'NI YO 'L SABABLI SODIR ETILGAN YTH.

O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI 2 (18) 442-446.

9. У Исоханов, С Турдебеков, Э Абдузматов (2023). ЕНГИЛ АВТОМОБИЛЛАРДА КЎРИНМАС ХУДУД ДА ЙЎЛ ТРАНСПОРТ ҲОДИСАЛАРИНИ ОЛДИНИ ОЛИШ ЧОРАЛАРИ. SUSTAINABILITY OF EDUCATION, SOCIO-ECONOMIC SCIENCE THEORY 1 (6) 92-95.

10. ШХ Шерматов, ШИ Абруев, ЭХ Абдузматов (2022). ВЛИЯНИЕ ДОРОЖНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ НА ПЕШЕХОДНОЕ ДВИЖЕНИЕ НА ПЕРЕСЕЧЕНИИ АХАНГАРАНСКОЙ ПАРКЕНТСКОЙ И ОБЪЕДИНЕННОЙ ДОРОГ. Экономика и социум 12-1 (103) 1089-1096.

11. ШК Хакимов, РГ Саматов, СС Ражапова, Да Абдураззакова, Э Абдузматов, Ш Абруев (2022). СНИЖЕНИЕ КОЛИЧЕСТВА ВЫХЛОПНЫХ ГАЗОВ ТРАНСПОРТНЫХ СРЕДСТВ ПУТЬЮМ КОМПЬЮТЕРНОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ ПЕРЕКРЕСТКА. Экономика и социум 9 (100) 715-724.

12. ШХ Шерматов, ШИ Абруев, ЭХ Абдузматов, НХ Турсунов, ЖА Чориев (2022). МЕТОД ОПРЕДЕЛЕНИЯ ГОРЯЧИХ ЗОН ГОРОДСКИХ ДОРОЖНО-ТРАНСПОРТНЫХ ПРОИСШЕСТВИЙ. Экономика и социум 12-1 (103) 1097-1104.

13. Э Абдузматов, Н Турсунов, Ш Ўткиров (2023). ЙЎЛ ҲАРАКАТИ ХАВФСИЗЛИГИНИ ОШИРИШ БЎЙИЧА ЧОРА-ТАДБИРЛАР. SUSTAINABILITY OF EDUCATION, SOCIO 1 (6) 84-88.

14. O' Isoxanov, E Abdusamatov, S Turdibekov (2022). ENGIL VA YUK AVTOMOBILLAR ISHTIROKIDAGI YTH TAHLLILI. IJODKOR O'QITUVCHI 2 (24), 216-219.

15. TNH Abdurazakova D.A, Abdusamatov E.X. (2023). REDUCING VEHICLE EXHAUST GASES BY COMPUTER SIMULATION OF THE ROAD INTERSECTION. European Chemical Bulletin 12 (4) 8615-8623. DOI:10.48047/ecb/2023.12.si4.769

16. SX Shermatov, UI Isoxanov, USS o'g'li (2023). METHODOLOGICAL RECOMMENDATIONS FOR DETERMINING VEHICLE SPEED. European Chemical Bulluten 12 (4) 8624-8631. DOI:10.48047/ecb/2023.12.si4.770

17. Ў Исоханов, Э Абдузматов, С Турдебеков (2022). ЕНГИЛ ВА ЮК АВТОМОБИЛЛАР ИШТИРОКИДАГИ ЙТҲ ТАҲЛИЛИ. IJODKOR O'QITUVCHI 2 (24) 216-219.